

## **BUXORO VILYOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-dekabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 65-223-75-63*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

### Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 19 532 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 80 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 19 452 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 18 358,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 184,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 174,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 040,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %) tashkil etdi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>18 358,3</b>	<b>107,4</b>
Buxoro shahri	5 622,8	109,0
Kogon shahri	664,5	104,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	525,0	137,9
Buxoro	1 306,5	105,7
Vobkent	670,4	114,0
G'ijduvon	3 426,4	105,3
Kogon	560,5	105,8
Qorako'l	1 327,3	105,5
Qorovulbozor	370,0	105,4
Peshku	651,6	105,7
Romitan	1 195,1	104,8
Jondor	1 269,0	104,1
Shofirkon	769,2	104,4


2023- yilning yanvar-dekabr oyida 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (109,0 %), Olot (137,9 %) va Vobkent (114,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)



So'nggi 5 yillikda (2019- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

## 2023- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 30,6 % bilan 5 622,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,0 % bilan 370,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 17 174,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 6,9 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,5 % ni tashkil etdi.

<b>105,7</b>	<b>Qorako'l</b>
<b>105,7</b>	<b>Buxoro</b>
<b>106,2</b>	<b>Peshku</b>
<b>114,3</b>	<b>Vobkent</b>
<b>138,9</b>	<b>Olot</b>
<b>156,5</b>	<b>Kogon</b>


## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 14,1 % ga o'sdi va 1184,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,5 % ulushiga to'g'ri keldi.

<b>99,4</b>	<b>Buxoro</b>
<b>99,5</b>	<b>Qorovulbozor</b>
<b>101,8</b>	<b>Kogon sh.</b>
<b>104,2</b>	<b>Peshku</b>
<b>113,6</b>	<b>Farg'ona</b>
<b>149,6</b>	<b>G'ijduvon</b>
<b>149,7</b>	<b>Buxoro sh.</b>



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,6 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (13,0 %), Peshku (26,4 %), Kogon (22,5 %) tumanlarida kuzatildi.

6,5 %



93,5 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Olot

**5 067,9**

Buxoro

**7 397,9**

Vobkent

**4 551,5**

G'ijduvon

**10 714,2**

Kogon

**6 704,3**

Qorako'l

**7 771,0**

Qorovulbozor

**18 781,7**

Peshku

**5 012,0**

Romitan

**7 962,3**

Jondor

**6 900,7**

Shofirkon

**4 148,8**

Buxoro sh.


**19 262,6**

Kogon sh.

**10 350,7**

2023- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 9 057,3 ming. so'mni (2022- yilning yanvar–dekabr oyiga nisbatan 105,6 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'satkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (19 262,6 ming. so'm), Qorovulbozor (18 781,7 ming. so'm) va G'ijduvon (10 714,2 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-dekabr), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 040,5</b>	<b>110,1</b>
Buxoro shahri	240,7	90,2
Kogon shahri	52,9	94,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	199,3	154,4
Buxoro	33,4	70,4
Vobkent	179,6	83,0
G'ijduvon	523,4	140,8
Kogon	4,8	2,4 m
Qorako'l	356,8	141,4
Qorovulbozor	35,3	107,7
Peshku	108,3	95,2
Romitan	122,3	120,3
Jondor	107,4	103,0
Shofirkon	76,3	47,9

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2023- yil yanvar-dekabr)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 040,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 110,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 987,1 mlrd. so'mni (121,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 053,4 mlrd so'mni tashkil etdi (101,3 %).

2023-yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 987,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (338,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

### **Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi**

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>373,2</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>37,8 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>153,4</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>15,5 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>87,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>8,8 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>53,4</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>5,4 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>50,1</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>5,1 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>25,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>2,5 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>12,7</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>1,3 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>23,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>2,4 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>5,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,6 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>14,7</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>1,5 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>8,1</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,8 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>179,7</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>18,3 %</b>

2023- yilning yanvar-dekabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 053,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 919,1 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 126,8 mlrd. so'mni, otlar – 4,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

### Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b>  <b>548,5</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>52,1 %</b>	<b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b>  <b>186,3</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>17,7 %</b>	<b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b>  <b>184,3</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>17,5 %</b>
<b>Qo'yilar</b>  <b>89,6</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>8,5 %</b>	<b>Otlar</b>  <b>4,6</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,4 %</b>	<b>Echkilar</b>  <b>37,2</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>3,5 %</b>
<b>Kurka, o'rdak, g'oz</b>  <b>1,8</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,2 %</b>	<b>Tovuqlar</b>  <b>0,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,1 %</b>	<b>Quyonlar</b>  <b>0</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,0 %</b>
<b>Qushlar</b>  <b>0,2</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,01%</b>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 094 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 089 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>725,4</b>	<b>109,5</b>
Buxoro shahri	408,2	107,4
Kogon shahri	19,7	104,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	10,2	123,9
Buxoro	29,7	111,1
Vobkent	41,3	107,6
G'ijduvon	58,5	102,0
Kogon	19,1	105,8
Qorako'l	23,9	117,2
Qorovulbozor	8,9	108,8
Peshku	18,8	102,6
Romitan	57,8	140,0
Jondor	16,6	111,4
Shofirkon	12,9	108,1

2023- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 725,4 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>4 063,8</b>	<b>100,0</b>
Buxoro shahri	2 528,2	62,2
Kogon shahri	11,5	0,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	7,5	0,2
Buxoro	20,7	0,5
Vobkent	719,7	17,7
G'ijduvon	668,7	16,4
Kogon	10,6	0,3
Qorako'l	17,3	0,4
Qorovulbozor	5,6	0,1
Peshku	14,6	0,4
Romitan	15,3	0,4
Jondor	10,7	0,3
Shofirkon	33,4	0,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (2 528,2 mlrd. so'm), Vobkent (719,7 mlrd. so'm) va G'ijduvon (668,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2023- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 4 063,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 3 129,7 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 170,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 934,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 139,5 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 15 929,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

25,4 %  
**4040,3** mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

74,6 %  
**11 888,9** mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 11 888,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 74,6 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 499 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 35 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 464 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Olot (108,3 m.), Qorako'l (2,9 m.) tumanlarida va Buxoro shahrida (159,1%) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>15 929,2</b>	<b>107,5</b>
Buxoro shahri	5 090,0	103,7
Kogon shahri	537,6	106,8
<i>tumanlar:</i>		
Olot	215,4	3,0 m.
Buxoro	670,9	112,6
Vobkent	1 969,0	100,1
G'ijduvon	1365,9	104,0
Kogon	1080,6	103,5
Qorako'l	409,8	183,7
Qorovulbozor	838,0	115,7
Peshku	1 301,5	101,5
Romitan	837,5	121,5
Jondor	911,0	113,4
Shofirkon	702,0	101,3